

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
AXBOROT VA OMMAVIY KOMMUNIKATSIYALAR
AGENTLIGI**

**BOBUR NOMIDAGI ANDIJON VILOYATI AXBOROT-
KUTUBXONA MARKAZI**

ILMIY METODIKA XIZMATI

**UCH AVLOD
UCHRASHUVI**

**USLUBIY
TAVSIYANOMA**



Andijon - 2022

*Inson qadr-qimmatini, sha'ni va g'ururi
bundan buyon barcha sohalarda birinchi
o'rinda turishi kerak!*

Sh. Mirziyoev

Mamlakatimizda Prezidentimiz rahbarligida tinchlikni mustahkamlash, xalqimiz farovonligini ta'minlash, keksalarni e'zozlash, ertamiz egalarini barkamol etib voyaga yetkazishga davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida alohida e'tibor qaratilmoqda. Binobarin, buyuk ajdodlarga munosib avlod bo'lish, yurtimiz taraqqiyotiga dahldorlik hissi bilan yashash har birimizning, ayniqsa, yoshlarning muqaddas burchidir.

Axborot-kutubxona markazlarida mutaxassislar tomonidan kitob va kitobxonlikni targ'ib qilish bilan birga, yosh avlodni har taraflama bilimli, zukko va barkamol avlod bo'lib yetishishlariga xizmat qiladigan turli ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar o'tkaziladi. Tarix, bugun va kelajakni o'zida mujassam etgan uch avlod uchrashuvi ham shular jumlasidandir.

Keksa va yosh avlod vakillarining uchrashuvi, ularning samimiy muloqoti orqali mamlakatimizda inson omiliga berilayotgan yuksak e'tibor, davlatimiz rahbari tashabbusi bilan jamiyatimizning har bir a'zosiga ko'rsatilayotgan g'amxo'rlik, mehr-oqibat, inson qadr-qimmatining ustuvor vazifaga aylanganini ko'rishimiz mumkin. Zotan, kelajagimiz bo'lgan yoshlarni jamiyatda munosib o'rnini topishlarida hayotiy boy tajriba egalari bo'lgan keksa avlod vakillarining o'rni muhim ahamiyat kasb etadi. Uch avlod uchrashuvi – bu o'tgan kunlarni xotirlash, bugungi o'zgarishlarga shukronalar aytish va kelajak sari katta maqsadlarni belgilash demakdir. Keksalarning o'gitlari yoshlarni chuqur bilim olishga, doim yaxshilik qilishga, yaxshi inson bo'lishga ilhomlantiradi.

KUTUBXONA CHIGA!

"JASORATLI KASB EGALARI"
mavzusidagi uch avlod uchrashuvi
SENARIYSI

O'tkazish joyi:

***Bobur nomidagi viloyat axborot-
kutubxona markazi***

O'tkazish muddati:

***2022 yil 2 iyul soat 10:00
Davomiyligi 90 daqiqa***

Tadbirda tayyorgarlik odatda 3-4 hafta oldin boshlanadi. AKM da uchrashuv o'tkazilayotganligi haqida e'lon beriladi. Mehmonlarga taklifnomalar yuboriladi. Tadbir dasturi ishlab chiqiladi.

E'LON!

2022 yil 15 may kuni soat 10:00 da Bobur nomidagi viloyat axborot-kutubxona markazida viloyat Ichki ishlar boshqarmasi xodimlari ishtirokida "Jasoratli kasb egalari" mavzusida uch avlod uchrashuvi o'tkaziladi. Barcha kitobxonlarni tadbirga taklif etamiz.

TAKLIFNOMA

Hurmatli _____!

Sizni 2022 yil 15 may kuni soat 10:00 da viloyat Ichki ishlar boshqarmasi xodimlari ishtirokida kutubxonamizda "Jasoratli kasb egalari" mavzusida o'tkaziladigan uch avlod uchrashuviga taklif etamiz.

*(Tadbir o'tkazilayotgan axborot-kutubxona markazi kirish maydonining 2 tomoni bayramona gullar bilan bezatiladi, yurish yo'lagiga qizil gilamlar to'shaladi, kutubxonaning o'ng tomonida **“UCH AVLOD UCHRASHUVIGA XUSH KELIBSIZ”** yozuvli banner o'rnatiladi. Mavzuga oid adabiyotlar ko'rgazmasi tashkil etiladi. Ko'rgazmadagi adabiyotlar sharhi tayyorlanib o'tkazilishi maqsadga muvofiq. Iste'fodagi Ichki ishlar boshqarmasi general, mayorlari va ayni damda boshqarmada faoliyat olib borayotgan xodimlar hamda soha bo'yicha tahsil olayotgan talaba yoshlarning faoliyatidan lavhalar asosida videorolik tayyorlanadi. Zalning ishtirokchilar uchun qulay bo'lgan joyiga monitor va videorolik namoyishi uchun maxsus qurilmalar o'rnatiladi.)*

Olib boruvchi: Baxtiyorman hur elimning,
Adolat shioridan,
Xalqim dildan ulug'lagan,
Tafakkuri, qaroridan

Saodatli elga baxt yor,
Iymonu e'tiqodim bor,
Adolat peshvolari kabi,
Istiqlolim baxtinga yor,

Qoyil qolsin ro'yi zamin,
Odillikdan, adolatdan.
Mana, ko'ring, havas qiling,
Unib o'sgan hidoyatdan.

Assalomu alaykum aziz kitobsevarlar, el-yurtimiz tinchligi va osoyishtaligi yo'lida xizmat qilayotgan mard va jasur ofitser va serjantlar, mayor va safdorlar, aziz o'quvchi yoshlar!

Ziyo maskanimizga xush kelibsizlar!

Bugungi Ichki ishlar boshqarmasi xodimlari ishtirokida o'tkaziladigan uch avlod uchrashuvimizni "Jasoratli kasb egalari" deb nomladik.

Hayot so'qmoqlaridan yorug' yuz bilan o'tib, yurt ravnaqi, el farovonligi yo'lida fidokorona mehnat qilgan nuroniylarning umr yo'li hamisha yoshlar uchun ibrat maktabi vazifasini o'taydi. Tarix, bugun va kelajakni o'zida mujassam etgan bunday ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar el-yurtimiz hayotida go'zal an'anaga aylandi. Qolaversa, sohada mehnat qilgan va ayni damda keksalik gashtini surayotgan faxriylarning hozirda faoliyatini olib borayotgan mutaxassislar hamda soha bo'yicha tahsil olayotgan yoshlarga hayoti va mehnat faoliyati davomida to'plagan boy tajribasi va mashaqqatlari, davlatimiz tomonidan ularga ko'rsatilayotgan hurmat-ehtirom haqidagi mazmunli suhbatlari hamda mutaxassislar va yoshlarning nafaqadagi mehnat faxriylariga dil so'zlarini bildirishga va shu bilan birga sizni bizning uch avlodga mansub yurtdoshlarimiz o'rtasida kechadigan samimiy suhbatlar guvohi bo'lishimizga imkon bermoqda.

Bugungi tadbirimizda ham uzoq yillar davomida yurtimiz tinchligi va ravnaqi yo'lida mehnat qilgan Ichki ishlar boshqarmasi faxriylari, hozirda xizmat qilayotgan fidoyi xodimlari hamda o'quvchi yoshlar

ishtirok etmoqdalar. Mamnuniyat bilan sizlarni ular bilan tanishtirib o'taman.

(Mehmonlar bilan tanishtiriladi)

Hurmatli davramiz ishtirokchilari, ilk so'zni Bobur nomidagi viloyat AKM direktori G.Ismailovaga beramiz. Marhamat!

(G.Ismailova tadbir ishtirokchilariga samimiy tilaklarini bildirib, uchrashuv kechani ochib beradi)

Olib boruvchi: Rahmat!

Shiddat bilan o'zgarayotgan bugungi murakkab zamonda dunyoning turli mintaqalarida hukm surayotgan notinch vaziyatlar, qurolli to'qnashuvlar har birimizni doimo hushyor va ogoh bo'lishga undaydi. Bunday sharoitda uyushgan transmilliy jinoyatchilik, terrorizm va ekstremizm, narkobiznes, korruptsiya kabi tahdidlarga qarshi samarali kurashish, ularga keskin zarba berish tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, Ichki ishlar organlari xodimlari zimmasiga ulkan mas'uliyat yuklamoqda. Kelinglar, bular haqida batafsil so'zlab berishni

Ichki ishlar boshqarmasida xizmat qilayotgan mayor (ofitser, serjant)_____dan

iltimos qilsak. Marhamat!

(Mutaxassis nutqi)

Olib boruvchi: Mazmunli suhbatingiz uchun rahmat. El-yurt tinchligi va osoyishtaligi yo'lida olib borayotgan sharaflı ishingizda muvaffaqiyatlar tilaymiz!

Endi o'zlarining she'riy chiqishlari uchun so'z navbatini O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar Vazirligi Andijon akademik litseyida tahsil olayotgan o'quvchi yoshlarimizga beramiz. Marhamat!

(O'quvchi yoshlar chiqishlari)

Olib boruvchi: Rahmat! Sizlarga kelajakda intellektual va professional, yuksak ma'naviyatli mutaxassislar bo'lib yetishib chiqishingizni tilaymiz.

Azizlar! Hozir barchangizga xushkayfiyat bag'ishlash maqsadida tadbirimizga tashrif buyurgan viloyat musiqali drama teatrining xushovoz

xonandasi

ijrosida

_____dilbar bir qo'shiq tinglaymiz. Marhamat!

(Qo'shiq yangraydi)

Olib boruvchi: Davramizga bahoriy iliqlik, qalblarimizga surur baxsh etgan qo'shiq uchun tashakkur!

Hurmatli tadbirimiz ishtirokchilari!

Barchangizni diqqat va e'tiboringizni monitorga qaratishingizni so'raymiz. Bugungi uchrashuv kechamiz uchun mutaxassislarimiz tomonidan tayyorlangan maxsus videorolik namoyish etiladi. Marhamat! (*Videorolik namoyishi*)

Olib boruvchi: Videorolik orqali guvohi bo'lganimizdek, mamlakatimiz ichki ishlar organlarining shonli tarixini asrab-avaylash, soha xodimlari va faxriylarining kelgusi avlodlarga namuna bo'ladigan jasoratini, ko'rsatgan ibrat namunalarini ommalashtirish, Vatanimiz mustaqilligi va el-yurtimiz osoyishtaligi yo'lida aziz jonlarini fido qilgan xodimlarning xotirasini e'zozlash va abadiylashtirish tinch va osoyishta yurtda yashayotgan barchamizning burchimizdir.

Mamnuniyat bilan so'z navbatini Ichki ishlar boshqarmasida yil xizmat qilgan mayor (general, ofitser, serjant) _____ ga bersak-da, el-yurtimiz tinchligi va osoyishtaligi yo'lida olib borgan fidokorona mehnatlari, mashaqqatli xizmatlari haqidagi qiziqarli suhbatini tinglasak. Marhamat! (*Mutaxassis ma'ruzas*)

Olib boruvchi: Maroqli suhbatingiz uchun sizga katta rahmat. O'ylaymizki, sizning samimiy suhbatingiz nafaqat soha bo'yicha tahsil olayotgan talabalar, balki har bir yoshlarni Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg'ulari bilan kamol topishi, shu zamin rivoji va yanada taraqqiy topishida o'z hissasini qo'shishiga zamin yaratadi. Mehnatlaringiz samarasi o'laroq Vatanimizning musaffo osmoni, ravnaqi va osoyishtaligini uzoq yillar davomida farzandlaringiz va biz yoshlar bilan birga ko'rib yurishingizni tilaymiz. Sog' bo'ling!

Endi esa, Ichki ishlar boshqarmasining bir guruh havaskor xonanda- ofitserlari ijrosida siz aziz faxriylar uchun maxsus qo'shiq yangraydi. Marhamat! (*Qo'shiq yangraydi*)

Shundan so'ng, tadbirda ishtirok etayotgan ofitserlar, mayorlar va serjantlar hamda talaba yoshlar tomonidan mehnat faxriylariga bildiriladigan samimiy dil izhorlari uchun navbat beriladi. Tadbir so'ngida faxriylarga esdalik sovg'alari va guldastalar taqdim etiladi.

Olib boruvchi: Qadrli tadbirimiz ishtirokchilar!

Bugungi mehnat faxriylari, viloyat Ichki ishlar boshqarmasi xodimlari va yoshlar ishtirokidagi uch avlod uchrashuvi mana shunday shukuhli damlar, fayzli kunda birga kechgan onlari, olgan olam-olam taassurotlariga zamin yaratganidan va bunga bizning ham hissamiz qo'shilganidan mamnun ekanligimizni bildirmoqchiman. Bugun bu yerda bildirilgan fikr-mulohazalar, qiziqarli va mazmunli suhbatlar, yurakdan bildirilgan dil izhorlari mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarning, erkin va farovon yurtimizning tinchligining samarasidir.

Fursatdan foydalanib, siz, azizlarga fidokorona mehnatingiz, o'z xizmat burchingiz, Vatanimiz va xalqimizga sadoqatingiz uchun chuqur minnatdorchilik bildiramiz.

Barchangizga e'tibor va ishtirokingiz uchun tashakkur, sizlar bilan kelgusi tadbirlarda ko'rishguncha xayr, sog' bo'linglar!

Tadbir so'nggida Ozodbek Nazarbekovning "Mendirman o'sha..." qo'shig'i va klipi yangraydi.



**Bobur nomidagi Andijon viloyati
axborot –kutubxona markazi**

JASORATLI KASB EGALARI

Uch avlod uchrashuvi



Andijon - 2022

TADBIR DASTURI

T/r	Mavzu	Shakli	Vahti
1	Uchrashuv kechaning ochilishi, ishtirokchilarini ro'yxatga olish	Ochilish	10:00 10:10
2	Kirish so'zi G.Ismailova: Bobur nomidagi viloyat AKM direktori	Ma'ruza	10.10- 10.20
3	Yurt tinchligi, Vatan ravnaqi - hamma narsadan ustun!: O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar Vazirligi Andijon viloyati boshqarmasi boshlig'i	Ma'ruza	10.20- 10.30
4	Vatanimga xizmat qilaman!: O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar Vazirligi Andijon akademik litseyi o'quvchi yoshlari	She'riy chiqishlar	10:30- 10:40
5	: Andijon viloyat musiqali drama teatri xonandasi	Qo'shiqlar guldastasi	10:40- 11:00
6	Sharafli kasb egalari	Videorolik	11:00- 11:10
7	Kasbim-faxrim: Andijon viloyat Ichki ishlar boshqarmasi faxriylari	Ma'ruza	11:10- 11:20
8	Yakuniy qism	Faxriylarni taqdirlash	11:20- 11:30

Tuzuvchi: Bosh mutaxassis D.Karimova